

CHINGIZ AYTMATOVNING “OQ KEMA” ASARIDA BOBO VA NABIRA OBRAZI TALQINLARI

Raximova Lobarxon Ikrom qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili
va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida bobo va nabira obrazlarini avlodlararo ruhiy aloqa hamda ma'naviy meros muammosi nuqtai nazaridan tadqiq etadi. Ilmiy izlanishda psixologik, tipologik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqolada Mo'min chol va bola obrazlarining psixologik portreti, ular o'rtasidagi ma'naviy-ruhiy yaqinlikning tabiat, rivoyat va afsona orqali shakllanishi, kattalar dunyosidagi axloqiy inqirozning bobo-nabira munosabatiga ta'siri kabi masalalar ilmiy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Chingiz Aytmatov bobo obrazini xalq xotirasining, nabira obrazini esa shu xotiraning kelajakdagi davomchisi sifatida badiiy ifodalagan. Ushbu munosabatning uzilishi esa nafaqat ikki qahramon fojiasi, balki jamiyatning ma'naviy tanazzulini aks ettiruvchi universal badiiy modeldir.

Kalit so'zlar: bobo va nabira obrazi, avlodlararo ma'naviy aloqa, xalq xotirasi, badiiy psixologizm, mifologik qatlam, an'ana uzatish, ma'naviy meros.

Abstract. This article examines Chingiz Aytmatov's novella “The White Ship” from the perspective of intergenerational spiritual connection and the problem of moral heritage, focusing on the images of the grandfather and the grandson. The study employs psychological, typological, and comparative methods of analysis. It explores the psychological portraits of Mo'min the old man and the boy, the formation of their spiritual closeness through nature, legends, and myths, as well as the impact of the moral crisis of the adult world on their relationship. The research demonstrates that Aytmatov artistically represents the grandfather as a bearer of collective memory, while the grandson embodies its continuation into the future. The rupture of this bond reflects not only the tragedy of the two characters but also serves as a universal artistic model of the spiritual decline of society.

Keywords: grandfather and grandson images, intergenerational spiritual connection, collective memory, artistic psychologism, mythological layer, transmission of traditions, moral heritage.

Аннотация. В данной статье повесть Чингиза Айтматова «Белый пароход» рассматривается с точки зрения межпоколенческой духовной связи и проблемы нравственного наследия на примере образов деда и внука. В научном исследовании использованы психологический, типологический и сравнительный методы анализа. В статье с научной точки зрения изучаются психологические портреты Момина-старика и мальчика, формирование их духовно-нравственной близости через природу, легенды и мифы, а также влияние морального кризиса мира взрослых на отношения деда и внука. Исследование показывает, что Чингиз Айтматов художественно осмысливает образ деда как носителя народной памяти, а образ внука — как продолжателя этой памяти в будущем. Разрыв этой связи отражает не только трагедию двух героев, но и выступает универсальной художественной моделью духовного упадка общества.

Ключевые слова: образ деда и внука, межпоколенческая духовная связь, народная память, художественный психологизм, мифологический слой, передача традиций, духовное наследие.

Kirish. Adabiyotda avlodlar o'rtasidagi munosabat azaldan muhim badiiy va falsafiy muammo sifatida tadqiq etib kelingan. Ota-bobolar va farzand-nabiralar o'rtasidagi ruhiy ko'priq nafaqat oilaviy hayotning, balki butun bir xalq madaniyatining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu munosabatning badiiy adabiyotdagi ifodalanishi esa ijtimoiy-ma'naviy holning eng nozik ko'zgidir. Xususan,

XX asr adabiyotida bobo va nabira obrazlarining yonma-yon tasvirlanishi alohida ma'no kasb eta boshladi.

Qirg'iz adabiyotining yorqin namoyandasi Chingiz Aytmatov o'zining 1970-yilda yozilgan "Oq kema" qissasida mazkur muammoni o'ta ta'sirchan badiiy shaklda ko'tardi. Asarda Issiqko'l bo'yidagi qo'riqxonada istiqomat qiluvchi Mo'min chol va bola timsolida avlodlar o'rtasidagi ma'naviy aloqaning mohiyati, shu aloqaning shakllanishi va fojiaiy ravishda uzilishi badiiy jihatdan chuqur yoritilgan. Yozuvchi bu ikkita obrazni bir-biriga zid kattalar olamining fonida tasvirlab, ular o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni insoniy poklikning, xalq an'anasining va ma'naviy bardoshlilikning timsoli sifatida ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi. "Oq kema" asari ilmiy adabiyotshunoslikda ko'p bor tadqiq etilgan bo'lsa-da, bobo va nabira obrazlarini aynan avlodlararo ma'naviy meros uzatish mexanizmi nuqtai nazaridan tahlil qilish hanuz yetarlicha o'rganilmagan.

Shu jihatdan mazkur maqolaning asosiy maqsadi - "Oq kema" qissasidagi bobo va nabira obrazlarini avlodlararo ruhiy aloqa va ma'naviy meros uzatish muammosi nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish, ushbu obrazlarning badiiy funksiyasini yangicha talqin etishdan iborat. Tadqiqotda psixologik tahlil, tipologik metod va qiyosiy adabiyotshunoslik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy adabiyotda xarakter yaratish yozuvchi mahoratining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, jonli xarakter yaratishning asosiy sharti uni hayot mantig'iga, xarakterning ichki mantig'iga amal qilib tasvirlashdan iborat. Bu tamoyil Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasida Mo'min chol va bolakay obrazlarini yaratishda alohida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ushbu ikki qahramonni bir-birini to'ldiruvchi, ammo o'ziga xos ichki dunyoga ega shaxslar sifatida tasvirlaydi.

Natija va tahlillar. Mo'min chol obrazi qissada o'ziga xos ikki qutblilik asosida qurilgan. Bir tomondan, u mehribon, mehnatkash, xalq donishmandligi va rivoyatlarining tirik tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Uning bolaga bo'lgan cheksiz muhabbati, nabirasini atrofidagi yovuzlikdan himoya qilishga intilishi, unga Shoxdor Ona bug'u haqidagi qadimiy rivoyatni aytib berishi - bularning barchasi Mo'min cholning ma'naviy boyligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar Xo'jayev va Tuychiboyeva ta'kidlaganidek, muallif ta'rificha Mo'min chol kamdan-kam uchraydigan baxtli odam bo'lib, uning bu xususiyati xudbinlik va alamzadalikdan xoli ekanligi bilan bevosita bog'liqdir [2:56]. Aynan shu fazilat boboni nabirasi bilan ruhiy jihatdan yaqinlashtiruvchi asosiy ko'prik vazifasini o'taydi.

Biroq Mo'min chol obrazining ikkinchi qirrasini - uning itoatkorligi va erksizligi - ham yozuvchi tomonidan chetlab o'tilmagan. Qissada kumushrang supurgi o'tlarning shamolga bo'ysunishi Mo'min chol obrazini metaforik tarzda ifodalovchi timsol sifatida ishlatiladi. Xuddi supurgi o'tlar shamol hukmida qolganidek, Mo'min chol ham tashqi bosim - O'rozqulning zo'ravonligi va qizining baxtsizligi oldida ojizlik ko'rsatadi. Ammo

yozuvchi bu o'zlikni qahramonning to'liq mag'lubiyati sifatida emas, balki uning fojiaiy ichki ziddiyatining ifodasi sifatida tasvirlaydi. Aynan shu ziddiyat - ma'naviy e'tiqod bilan hayotiy majburiyat o'rtasidagi kurash - Mo'min cholni yuzaki emas, chuqur psixologik jihatdan ishonchli obraz darajasiga ko'taradi[1:151].

Bolakay obrazi esa Mo'min choldan ko'p jihatdan farq qiladi va shu farq ikki avlod o'rtasidagi ruhiy dinamikani boyitadi. Qissa qahramoni bo'lgan bolakayning eng asosiy xususiyati - uning ichki erkinligi, botirlik va qat'iyatidir. Yozuvchi bu xususiyatlarni tabiat bilan muloqot sahnalarida yaqqol ko'rsatadi. Bolakay butalar ustidan hatlab, qiyin toshlarni yonlab o'tib chopib borar, hech narsadan to'xtamas edi. Bu tasvirda nafaqat jismoniy harakatning ifodasi, balki bolakay xarakteridagi irodaning, hayotga intilishning badiiy ko'rinishi mujassam. Shu jihatdan bolakay obrazidagi qat'iyat va erkka tashnalik bobosidagi itoatkorlik bilan qiyoslanib, ikki avlod o'rtasidagi psixologik farqni ochib beradi. Biroq bu farq ikki qahramon o'rtasida uzoqlikni emas, aksincha, o'ziga xos to'liqlikni yuzaga keltiradi. Mo'min chol nabirasida o'zida yo'q erkinlikni, bolakay esa bobosida o'zida yo'q donishmandlik va xotirani ko'radi. Bu o'zaro to'ldirish jarayoni bobo va nabira munosabatini oddiy qarindoshlik rishtalari doirasidan chiqarib, ma'naviy hamkorlik darajasiga ko'taradi. Habibullayev va Habibullayevaning ilmiy ishida kuzatishicha, bolakayning orzulari, tabiatga bo'lgan yaqinligi va afsonalarga ishonchi uning ruhiy boyligining asosiy belgilaridir. Shu ruhiy boylik esa aynan Mo'min cholning nabirasiga uzatgan ma'naviy merosi orqali shakllangandir.

Aytmatov qahramonlarning ichki portretini yaratishda tabiatdan mohirona foydalanadi. Bolakayning ruhiy holati ko'pincha uni o'rab turgan tabiat manzaralari orqali ochib beriladi - u uchun har bir daraxt, har bir tosh, har bir sharshara jonli va ma'noli. Bu holat, bir tomondan, bolakayning beg'ubor dunyoqarashini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, Mo'min chol tomonidan ulashilgan xalq tafakkurining, tabiatni tirik va muqaddas deb biluvchi qadimiy e'tiqodning mevasidir. Demak, bolakayning tabiat bilan uyg'unligi biologik emas, balki ma'naviy hodisa: avlodlardan avlodga o'tgan dunyoqarashning bolakay qalbida ildiz otganligi natijasidir.

Shunday qilib, "Oq kema" qissasida bobo va nabira obrazlari psixologik jihatdan bir-birini zidlash orqali emas, balki bir-birini boyitish orqali yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi. Mo'min cholning donishmandligi, xotirasi va rivoyatlarga sodiqligi bolakayning erkinligi, orzulari va hayotga intilishi bilan qo'shib, avlodlararo ma'naviy aloqaning eng nozik va ishonchli badiiy ifodasini vujudga keltiradi. Aytmatov bu ikkala obrazni yaratishda faqat ijobiy yoki faqat salbiy sifatlarni emas, xarakterning ichki mantig'ini - hayot haqiqatini ustuvor qo'ygan, va aynan shu yondashuv ushbu obrazlarni o'zbek va jahon adabiyoti kontekstida alohida o'ringa loyiq qiladi. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasida bobo va nabira o'rtasidagi munosabat oddiy oilaviy rishtalar doirasidan chiqib, ma'naviy meros uzatishning murakkab mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu mexanizmning asosiy vositasi - xalq og'zaki ijodi, rivoyat va afsonalar tizimi bo'lib, ular

orqali avlodlar o'rtasida nafaqat bilim, balki dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar va tabiat bilan uyg'unlik tuyg'usi uzatiladi [5:86]. Mo'min chol nabirasiga Shoxdor Ona bug'u haqidagi qadimiy rivoyatni aytib berganida, u shunchaki ertak emas, balki xalq xotirasining tirik timsolini, ona mehrining va tabiat muqaddasligining ramzini yetkazmoqda.

Tadqiqotchilarning kuzatishicha, Mo'min cholning nabirasiga bo'lgan muhabbati va rivoyatlarni uzatish istagi uning o'zida yo'q erkinlik va qat'iyatni bolakayda ko'rish istagi bilan bog'liq. Bobo o'zi itoatkorlik va o'zlikka mahkum bo'lsa-da, nabirasida bu fazilatlarni ko'rmaslikka intiladi. Natijada, ikki avlod o'rtasida o'ziga xos "ma'naviy almashinuv" yuzaga keladi: chol xotira va donishmandlikni beradi, nabira esa poklik, orzu va hayotga intilishni qaytaradi. Bu jarayonni oddiy tarbiya emas, balki madaniy xotira mexanizmi deb ta'riflash mumkin. Chunki rivoyat orqali uzatilayotgan narsa – bu faqat hikoya emas, balki xalqning milliy o'zligini saqlab qolishga qaratilgan ma'naviy immunitetdir.

Aytmatov bu mexanizmni tabiat tasvirlari bilan uyg'unlashtirib, uni yanada chuqurlashtiradi. Bolakayning daraxtlar, toshlar va suv bilan "suhbatlashishi", supurgi o'tlar va pechak gullarga nisbatan mehr-muhabbati – bularning barchasi Mo'min chol orqali o'zlashtirilgan qadimiy e'tiqodning natijasidir. Demak, avlodlararo aloqa biologik emas, madaniy-mifologik xarakterga ega. Bu aloqa uzilganda esa nafaqat shaxsiy fojia, balki butun bir madaniy merosning uzilishi yuzaga keladi. Aynan shu jihatdan "Oq kema" qissasi zamonaviy adabiyotda avlodlar bog'liqligining eng muhim badiiy modellaridan biri sifatida ajralib turadi.

Bobo va nabira o'rtasidagi ma'naviy meros uzatish mexanizmi kattalar dunyosidagi axloqiy inqiroz fonida sinovdan o'tadi. Asarda O'rozqul obrazi orqali jamiyatning ma'naviy tanazzuli, mansabparastlik, tabiatga nisbatan bepisandlik va oilaviy qadriyatlarning buzilishi timsollashtirilgan [4:89]. Mo'min cholning qizining farzandsizligi tufayli O'rozqulning bosimi ostida bo'lishi – bu nafaqat shaxsiy tanlov, balki xalq e'tiqodiga xiyonatdir. Bobo o'zining ichki e'tiqodi bilan hayotiy majburiyat o'rtasida "ikki o't orasida" qoladi. Bu holat uning obrazini fojiviy darajaga ko'taradi: u nabirasiga rivoyatni aytib bergan odam sifatida o'sha rivoyatning o'zini yo'q qilishga majbur bo'ladi.

Asardagi eng ta'sirli motivlardan biri - maral afsonasidir. Bu afsona qirg'iz xalqining milliy ongida muqaddaslik, onaning mehr-muhabbati, fidoyilik timsoli sifatida yashab keladi. Ammo O'rozqul va uning sheriklari tomonidan maralning vahshiylarcha o'ldirilish qadriyatlarning, yaxshilik va mehrning halokatga uchrashi belgisi sifatida talqin qilinadi. Bolakay uchun bu voqea ruhiy dunyoning butunlay vayron bo'lishiga olib keladi. Chunki u maral afsonasiga chin dildan ishonadi, unga sig'inadi va bu afsona orqali o'zining onasi haqidagi orzularini ko'radi. Maralning o'ldirilishi - bolakayning ruhiy tayanchining qulashidir.

Bolakay uchun bu voqea ruhiy qulashning boshlanishi bo'ladi. U bobosining "xiyonati"ni ko'rib, o'zining yagona ma'naviy tayanchini yo'qotadi. Natijada, Oq kema timsoli – orzular, poklik va ozodlik ramzi – unga yagona najot yo'li bo'lib qoladi. Bolakayning baliqqa aylanish orzusi va Oq kemaga suzib ketish harakati – bu nafaqat bolalik orzusining ifodasi, balki avlodlararo aloqaning uzilishi natijasida yuzaga kelgan ma'naviy inqirozning ekstremal shaklidir. Aytmatov bu orqali shuni ko'rsatadiki, kattalar dunyosidagi axloqiy tanazzul bolalar dunyosiga bevosita ta'sir qiladi va avlodlar bog'liqligini buzadi. Shu tariqa, bobo obrazining fojiviy qismati individual emas, ijtimoiy xarakterga ega. U xalq xotirasining saqlovchisi bo'la turib, o'sha xotirani himoya qila olmagan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir orqali yozuvchi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan birini – an'ana va qadriyatlarning avlodlararo uzatilishidagi zaiflikni ochib beradi.

Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi bobo va nabira obrazi nafaqat milliy, balki universal adabiy tipologiyaga ega. Jahon adabiyotida chol va nabira (yoki ota va bola) munosabati ko'pincha avlodlararo xotira va an'ana uzatishning ramzi sifatida talqin etiladi. Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda"sida bola obrazi kattalar dunyosining ma'naviy qashshoqligiga qarshi turuvchi poklik timsoli sifatida ko'rsatiladi [1:57]. Aytmatovning bolakayi ham xuddi shu tarzda – orzular olamiga chekinish orqali haqiqatning shafqatsizligidan qochadi. Biroq Aytmatovning modelida bu chekinish fojiviy yakun topadi, chunki boboning zaifligi tufayli ma'naviy ko'priklarni uziladi.

O'zbek adabiyotida ham chol va nabira obrazlari an'ana uzatishning muhim timsoli sifatida uchraydi (masalan, Nazar Eshonqulning "Farishta", Oybekning "Bolalik xotiralarim" asarlarida ota-bola munosabatlari orqali milliy qadriyatlarning davomiyligi ko'rsatiladi). Lekin Aytmatovning yondashuvi o'ziga xos: u bobo-nabira obrazini "madaniy xotira mexanizmi" sifatida talqin qiladi. Bu mexanizm chol – xotiraning saqlovchisi, nabira esa uning faol davomchisi va yangilashuvchisi vazifasini o'taydi. Agar bu mexanizm buzilsa, jamiyat ma'naviy inqirozga yuz tutadi. Muallifning pozitsiyasi shundan iboratki, Chingiz Aytmatov bobo va nabira obrazlarini adabiyotda avlodlar bog'liqligining eng nozik va zaif ko'priklari sifatida ko'rsatadi. Bu nafaqat psixologik, balki falsafiy-mifologik jihatdan ham yangi tipologik modelni taklif etadi: avlodlararo aloqa – bu madaniyatning o'zini saqlab qolish mexanizmi. Ushbu model zamonaviy globallashtirish sharoitida ayniqsa dolzarbdir, chunki u an'ana uzatishning inqirozini va uni tiklash zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi bobo va nabira obrazlari adabiyotda avlodlararo ruhiy aloqa va ma'naviy meros uzatish muammosining eng yorqin badiiy ifodasidir. Ular o'rtasidagi munosabat rivoyat, tabiat va poklik orqali shakllanib, ma'naviy hamkorlik darajasiga ko'tariladi. Biroq kattalar dunyosidagi axloqiy inqiroz bu ko'priklarni buzadi va fojiga olib keladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Chingiz Aytmatov bobo-nabira obrazini oddiy oilaviy obrazlar emas, balki "madaniy xotira mexanizmi" sifatida yangicha talqin qilgan. Bu mexanizmning uzilishi nafaqat shaxsiy, balki jamiyatning ma'naviy tanazzulini aks ettiruvchi universal modeldir. Asar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaydi, chunki avlodlar bog'liqligini saqlash – har qanday millatning kelajagi uchun muhim shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aytmatov, Ch. (2015). *Oq kema*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Xo'jayev, S., & Tuychiboyeva, N. K. (2022). Bobo va nabira masalasi (Ch. Aytmatovning "Oq kema" asari misolida). *International Scientific Journal of Biruni*, 1(2), 376–381. <https://doi.org/10.24412/2181-2993-2022-2-376-381>
3. Musulmonov, Sh. B., & Suvonov, H. (2024). Chingiz Aytmatov "Oq kema" asarini badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida namoyish etishi. *Pedagogs*, 56(3), 15–18.
4. Xabibullaev, Sh. A., & Xabibullaeva, M. L. (2024). Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asari. *Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari*, 56–59. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17810249>
5. Rasulov, A. (1985). *Tanqidchilik ufqlari*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
6. Sharafiddinov, O. (1989). *Haqiqatga sadoqat*. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

